



DINIY MAZMUNDAGI MATERIALLARNI QONUNGA XILOF TARZDA TAYYORLASH, SAQLASH, TARQATISH JINOYATLARINI ANIQLASH VA FOSH ETISH TAKTIKASI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Oripov Temurmaliq Baxtiyor o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Tezkor-qidiruv faoliyati
kafedrasida o'qituvchisi

Xoldarboyeva Nodira Asqar qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 305-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15673587>

ARTICLE INFO

Received: 01st June 2025

Accepted: 05th June 2025

Published: 15th June 2025

KEYWORDS

Diniy materiallar, ekstremizm, jinoyat, qonunchilik, xavfsizlik, aniqlash taktikasi, fosh etish, raqamli monitoring, huquqiy muvozanat.

ABSTRACT

Mazkur maqolada diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof tarzda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash va fosh etish bo'yicha mavjud muammolar va ularni bartaraf etishning samarali usullari tahlil qilingan. Xususan, qonunchilikdagi bo'shliqlar, texnologik imkoniyatlarning cheklanganligi, inson huquqlari bilan bog'liq xavotirlar hamda xalqaro hamkorlikdagi sustkashliklar chuqur o'rganilib, amaliy echimlar taklif etilgan. Maqola huquqshunoslik, kriminologiya, axborot xavfsizligi va diniy sohaga daxldor tadqiqotchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Globalashuv davrida diniy e'tiqod erkinligi inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, bu erkinlikdan foydalanib, ayrim kuchlar tomonidan jamiyatga tahdid soluvchi, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi materiallar ishlab chiqilmoqda. Shu nuqtai nazardan, diniy mazmundagi materiallarning qonuniy va noqonuniy shakllarini farqlash, ularning noqonuniy muomalasini oldindan aniqlash va bartaraf etish bugungi kunda muhim ijtimoiy va huquqiy vazifa sifatida maydonga chiqmoqda. Ko'pgina holatlarda "taqiqlangan diniy material" tushunchasi huquqiy jihatdan aniq belgilanmagan. Bu esa huquqni qo'llash amaliyotida chalkashliklarga, ayrim holatlarda inson huquqlari buzilishiga olib kelmoqda.

Internet, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali noqonuniy diniy materiallarning tarqalishi son jihatdan keskin oshgan. Shuningdek, yashirin "darknet" kanallari orqali ekstremistik adabiyotlar tez va nazoratdan chetda tarqatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning ta'biri bilan aytganda, "Biz hammamiz tinchlikni istaymiz, tinchlikni orzu qilamiz, lekin tinchlik uchun kurashish kerak, bu yorug' hayotni, farzandlarimizning kelajagini, ularning beg'ubor kulgusini har qanday xavf-xatardan asrashimiz lozim"¹.

Ekstremizm bu - ma'naviy tahdidlarning bir turi bo'lib, ular o'zlari mansub bo'lgan diniy konfessiya vakillarini radikal harakatlarga chorlovchi, mamlakatdagi tinchlik va osoyishtalikni izdan chiqarishga intiluvchi, mavjud konstitutsion tuzumni ag'darib tashlashga da'vat etuvchi tajovuzkor siyosiy faoliyatdir.

¹ Ўзбекистон 21 аср бўсағасида: "Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартларива тараққиёт кафолатлари". –Т.: Ўзбекистон, 1997. – 328-б.

Bugungi kunda ekstremistik tashkilotlarning asosiy faoliyat uslublari sifatida ekstremistik ruhdagi, shu jumladan, "jihod", "shahidlik" g'oyalari targ'ib qilingan adabiyot, video va audio tasmalarni tarqatish, yashirin guruhlar tuzish va uning a'zolarini maxsus (radikal diniy tashviqot yuritish, qo'poruvchilik va h.k.) tayyorgarlikdan o'tkazish, o'z tarafdorlarini davlat strukturalariga kiritishga urinish, yashirin "hujralarda" o'qiyotganlarga mutaassib tushunchalarni singdirish, ayollardan iborat yacheykalarni kuchaytirish, ijtimoiy-siyosiy holatni muntazam ravishda qoralash, rasmiy diniy idora vakillarini obro'sizlantirish, hamda bevosita terroristik aksiyalar o'tkazishni ko'rsatish mumkin.

Ekstremizm illatining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu mavzuning naqadar dolzarb ekanligi, bunday vaziyatda xalqimizning har bir fuqarosidan yanada xushyor bo'lishliklari, ayniqsa yurt va xalq tinchligiga bevosita ma'sul bo'lgan xuquq-tartibot organlari xodimlarining yanada xushyor va sergak bo'lmoqlilari, yurt tinchligi va xalq farovonligiga taxdid solishi mumkin bo'lgan bo'lgan salbiy illatlarning oldini olish va o'z vaqtida bartaraf etishlari yuzasidan zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishliklari muhimdir.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlari ekstremizmga qarshi kurashish, uning oldini olish hamda bu yo'lga adashib kirib qolgan fuqarolarni reabilitatsiya qilishlik yuzasidan O'zbekiston tajribasiga yuksak baho bermoqdalar, jumladan 2021 yil 1 iyul kuni "2021-2026 yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoevning farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon bilan "2021-2026 yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi" va «Milliy strategiyasini amalga oshirish yuzasidan yo'l xaritasi"ga ko'ra, quyidagilar strategiyaning ustuvor yo'nalish va maqsadlari etib belgilandi:

- ekstremizm va terrorizm g'oyalari tarqalishining oldini olish maqsadida vatanparvarlik, an'anaviy qadriyatlar va bag'rikenglik mafkurasini targ'ib qilish;
- voyaga etmaganlar va yoshlar orasida ekstremizm va terrorizm g'oyalari tarqalishining oldini olish;
- ayollar huquqlarini himoya qilish hamda ularning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi rolini kuchaytirish;
- uzoq muddat xorijda bo'lgan fuqarolarni ekstremizm va terrorizm g'oyalari ta'siridan himoya qilish;
- Internet jahon axborot tarmog'idan ekstremistik va terrorchilik maqsadlarida foydalanishga qarshi kurashish;
- fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarini ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga keng jalb qilish;
- ekstremistik va terrorchilik harakatlarini sodir etganlik hamda ularni moliyalashtirganlik uchun huquqiy ta'qib va javobgarlikka tortish choralarini takomillashtirish;
- ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- ushbu sohadagi xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish.

Hujjatda ma'lum qilinishicha, hukumat bundan keyin ham diniy sabablarga ko'ra buzg'unchi mafkuralar ta'siridan jabr ko'rgan shaxslarga har tomonlama yordam ko'rsatishda davom etadi. Shuningdek, hujjatda aholining huquqiy madaniyati va ma'rifatini oshirib borish, diniy sohada diniy va dunyoviy bilimlarni egallagan, fuqarolar orasida diniy asosdagi ekstremizm mafkurasiga qarshi immunitetni shakllantira oladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va

ommaviy axborot vositalarini ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish ishlariga faol jalb etish belgilangan².

Din bilan davlat o'rtasida mustahkam ittifoq tuzilgan bo'lib, din davlat taraqqiyotiga, osoyishtalikka, fuqarolarni vatanga fidoyilik, Allohga ishonch, imonli-e'tiqodli, rostgo'y, pokiza, o'z mehnati evaziga kun ko'radigan, haromdan xazar qiladigan, kishining xaqidan qo'rqadigan, adolatli, o'z huquqini taniydigan, boshqalarni xurmat qiladigan, mamlakatda mavjud qonunlar asosida

ish yuritadigan ruhda tarbiyalashga ko'maklashmoqda³.

Shiorlarini muqaddas diniy atamalardan foydalangan holda targ'ibot va tashviqot qiluvchi ekstremistlar din niqobida o'zlarining yovuz niyatlarini amalga oshirishda xalkning saviyasi yuqori bo'lmagan qismini jumladan xotin-qizlar, yoshlarni o'z quroliga aylantirishga harakat qiladilar. Xozirgi bozor munosabatlari sharoitida mamlakatdagi iqtisodiy qiyinchiliklar hamda ishsizlik darajasidam ma'lum ma'noda ularga qo'l keladi. Xozirgi paytda xalq orasida diniy jaholatparastlikka qarshi kurash olib borish, mafkuraviy ishlarni ilmiy asosga qo'yish hamda bu yo'lda og'ishmay izchillik bilan harakat qilish muhim vazifalardan biridir.

So'nggi yillarda ekstremist oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini mehnat migrantlarini ta'sir doirasiga olish, "hujralar" tashkil etish, diniy ekstremistik mazmundagi materiallarni elektron ko'rinishda tarqatish, internet orqali targ'ibot o'tkazish kabi usullarda amalga oshirmoqda. Terroristik tashkilotlar, ayniqsa, internet tarmog'ida go'yoki islom ravnaqi yo'lida kurashayotgan "mujohid birodarlar guruhi" ekani haqida targ'ibot-tashviqot olib borayotgani, buning oqibatida dunyoning ko'plab mamlakatlaridan musulmon yoshlar "hijrat" qilish

va "jihod"da ishtirok etish da'vosida Yaqin Sharq mamlakatlari hududiga borib, ushbu guruhlar safiga qo'shilayotganining guvohi bo'lmoqdamiz⁴.

Yana e'tibor berish lozim bo'lgan bir holat, ekstremistlar o'zlariga ergashmagan barcha musulmonlarni "kofir"ga chiqarib, erkaklarni qatl qilib, ayollar va bolalarni esa qul sifatida sotish kabi qabih ishlarga qo'l urayaptilar.

Diniy materiallarni aniqlash va taqiqlashda noto'g'ri chora-tadbirlar ko'rilsa, fuqarolarning e'tiqod erkinligiga noqonuniy aralashuv holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Diniy ekstremizm ko'pincha transchegaraviy tusga ega bo'lsa-da, davlatlar o'rtasida axborot almashinuvi va tezkor hamkorlik talab darajasida emas.

Huquqshunoslik, axborot xavfsizligi va dinshunoslik sohalarini birlashtira oladigan kompleks yondashuvga ega kadrlar etarli emas.

• Huquqiy aniqlik: "Taqiqlangan diniy material" tushunchasining mezonlarini aniq belgilovchi normativ hujjatlarni ishlab chiqish zarur.

• Texnologik echimlar: Sun'iy intellektga asoslangan kontent monitoring tizimlarini joriy qilish orqali internetdagi ekstremistik diniy materiallarni erta aniqlash mumkin.

² Ўзбекистон Республикаси президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2021 йил 01 июль кундаги ПФ-6255-сонли "2021 — 2026 йилларга мўлжалланган экстремизм ва терроризмга қарши курашиш бўйича Ўзбекистон Республикаси миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида"ги фармони. – Т.: Ўзбекистон. 2021 йил.

³ Атоев А. А. Ў. Сўров тезкор-кидирув тадбирини ўтказишда унинг тактик хусусиятлари //Eurasian Journal of Technology and Innovation. – 2024. – Т. 2. – №. 4. – С. 43-51.

⁴ Bektemirov X., Oripov T. ICHKI ISHLAR ORGANLARI TEZKOR BO 'LINMALARI TOMONIDAN BEDARAK YO 'QOLGAN SHAXSLARNI QIDIRUVINI TASHKIL ETISH //Решение социальных проблем в управлении и экономике. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 109-112.

- Profilaktika: Ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari va diniy tashkilotlar orqali fuqarolarga qonuniy va noqonuniy diniy materiallar orasidagi farq haqida muntazam tushuntirish ishlari olib borilishi zarur.

- Xalqaro mexanizmlar: BMT, YUNESKO, YeXHT kabi xalqaro tashkilotlar doirasida diniy ekstremizmga qarshi kurashda axborot almashish tizimini yaratish.

- Kadrlar tayyorlash: Universitetlar va maxsus o'quv markazlarida dinshunos-huquqshunos-IT mutaxassislarini tayyorlashga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini yaratish.

Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof tayyorlash, saqlash, tarqatish va foydalanish bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash va fosh etish masalasi ko'p qirrali va kompleks yondashuvni talab etadi. Bu sohada huquqiy aniqlik, zamonaviy texnologiyalar, ma'rifiy profilaktika, xalqaro hamkorlik va yuqori malakali kadrlar tayyorlash muhim omil sifatida ko'rilmog'i lozim. Shuningdek, diniy erkinlik

va xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatni buzmaslik asosiy tamoyil bo'lib qolishi shart.

Yana shuni qayd etib o'tish kerakki, prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev tabirlari bilan aytganda, "yoshlarni tarbiyalash xalqni tarbiyalash deganidir" hozirgi kunda ushbu shior ostida yoshlarimiz o'z hayoti, o'z taqdirini Yangi O'zbekiston bilan chambarchas bog'lamoqda. Yangi O'zbekiston barcha sohalardagi erishayotgan yutuqlaridan fahrlanish hissibilan yashamoqda, yurtimizning shaharva qishloqlari qiyofasi tanib bo'lmas darajada o'zgarib bormoqda, ishlab chiqarish va sanoat jadal suratlarda rivojlanmoqda, uning tarkibi tubdan yangilanmoqda⁵.

Bu yangilanish va o'zgarishlar yoshlarimizga yanada katta kuch va madad bermoqda. Dunyodagi tengdoshlari orasida hech kimdan kam bo'lmaydigan imkoniyatlar va sharoitlar yaratilganligini yoshlarimiz chuqur anglamoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishlikni lozim deb bildimki, bugungi dolzarb zamonda Yangi O'zbekistonimizni taraqqiyot cho'qqisiga olib chiqishligimiz uchun xalqimizni chuqur o'ylangan g'oyaviy mafkura bilan sug'orib, ularni turli xil ko'rinishdagi destruktiv kuchlar hamda ekstremistik oqimi tarafdorlarining ta'siri ostiga tushib qolishlarini oldini olishlik, vatandoshlarimiz ongida vatanparvarlik, adolat, halollik, mardlik hislatlarini shakllantirish bugungi kunning ajralmas qismiga aylanishi darkordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. — Toshkent, 2024.
2. "Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash" bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari to'plami. — Adliya vazirligi, 2023.
3. B. Rustamov. Huquqiy davlat va diniy erkinlik. — Toshkent: Ijtimoiy Fikr, 2022.
4. Interpol Extremism Report, 2023.
5. OSCE Annual Report on Countering Religious Extremism. — Vienna, 2022.
6. M. Hasanov. "Digital threats in modern religious propaganda". – Journal of Security Studies, 2023, No. 2.
7. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining 2021-yildagi 2(49) - son Axborotnomasi.
8. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2021-yil 01-iyul kunidagi PF-6255-sonli "2021 — 2026 yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
9. Atoev A. A. O'. So'rov tezkor-qidiruv tadbirini o'tkazishda uning taktik xususiyatlari // Eurasian Journal of Technology and Innovation. – 2024. – T. 2. – №. 4. – S. 43-51.
10. Bektemirov X., Oripov T. Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari tomonidan bedarak yo'qolgan shaxslarni qidiruvini tashkil etish // Решение социальных проблем в управлении и экономике. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – S. 109-112.

⁵ Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг 2021 йилдаги 2 (49) - сон Ахборотномаси.